



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

8-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 8 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### **07.00.00- TARIX FANLARI:**

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### **08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:**

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxonha instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### **09.00.00- FALSAFA FANLARI:**

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### **10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:**

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy

kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Baxranov Sherzod*

O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ  
MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI ..... 10-16

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

Milliy Hunarmandchilik: Usta-Shogird Munosabatlarning  
Transformatzion Jaryonlari ..... 17-21

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

O'zbekistonda Millatlararo Tolerantlik va uning madaniy-siyosiy  
Jaryonlariga ta'siri ..... 22-30

*Raxmatov Mirjon*

Buxoro viloyatida bojxona tizimining shakllanishi tarixidan ..... 31-38

*To'xtasinov Mira'zam*

Somoniylar davlati: harbiy islohotlar va boshqaruv strategiyalari ..... 39-42

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 43-48

*Azgarov Abdumutalib*

Internet-marketingning umumiyoq ovqatlanish korxonalarida  
qo'llanilishi holati tahlili ..... 49-56

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

Impact of industrial policy on the investment climate:  
international experience ..... 57-60

*Otabekov Javdod*

GO'SHT yetishtirish tizimini raqamlashtirish va "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI"  
imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari ..... 61-68

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini  
takomillashtirish orqali investitsion jozibadorlikni ta'minlash ..... 69-74

*Uralov Temur Boxodir o'g'li*

ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI HUJJATLASHTIRISH  
VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 75-81

*Samandarov Og'abek*

ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL  
modelining ahamiyati ..... 82-86

## **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Yuldashev Rustam Daniyorovich</i>	
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI .....	87-93
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L .....	94-98
<i>Berdikulova Surayyo Aslamovna</i>	
IJTIMOIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI .....	99-104
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i>	
ZAMONAVIY O'ZBEKİSTON JAMIYATI SHAROİTLARIDA TA'LIM MADANIYATI .....	105-113
<i>Yarbaev Xasan Xazratqulovich</i>	
JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL .....	114-118
<i>Maxsudjonov Kamronjon</i>	
MA'RIFIY TASHKIOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIY MADANIYATIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI .....	119-123
<i>Qo'chqarov Oybek G'ulomovich</i>	
INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSİYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUV .....	124-128
<i>Otaqulov Elyor Madiyorovich</i>	
EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI .....	129-136
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i>	
TUSHUNCHА USTIDA MANTIQIY AMALLAR .....	137-141

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Niyazov Ravshan Turakulovich</i>	
SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI .....	142-148
<i>Yunusova Xilola Ravshan qizi</i>	
KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI "V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA .....	149-154
<i>Absalamova Gulmira Sharifovna</i>	
LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIY TERMINLARNING NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA .....	155-158
<i>Dadajanova Aziza Karimullayevna</i>	
THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION: A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE .....	159-170
<i>Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna</i>	
YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI RAMZIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA) ERTAGI MISOLIDA .....	171-175
<i>Babajanova Iqbol Salomaddinovna</i>	
SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI .....	176-180

*To'xtayeva Sarvinoz*

DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI ..... 181-184

*Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi*

TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM  
MANBALARI QIYOSI ..... 185-189

*Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna*

CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING  
IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY .... 190-195

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*O'rinboyev Rustamjon*

A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES  
OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA ..... 196-206

*Uzakova Go'zal Sharipovna*

YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI ..... 207-212

*G'ofurova Dilafroz*

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING  
KRIMINALISTIK TAJSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR ..... 213-218

*Komilov Avazbek Bokijonovich*

PROKUROR TAQDIMMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI  
BARTARAF ETISH MASALALARI ..... 219-223

*Juraeva Asal*

OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN ..... 224-228

*Ходжаева Ширин*

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ  
СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ ..... 229-239

*Imomniyozov Doniyorbek*

SUN'YIY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:  
IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR ..... 240-250

*Asadov Shahriddin Faxriddinovich*

XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:  
SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN ..... 251-254

*Суннатиллаева Сарвиноз*

АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И  
КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА ..... 255-262

*Anarbayev Eldor*

KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ..... 263-269

*Ibrohimov Azimjon*

KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:  
XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK ..... 270-278

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Qurbanov G'ulomjon G'afurovich*

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI,  
SHAKLLARI VA VOSITALARI ..... 279-285

<i>Safarova Nigora Nasilloyevna</i>	
TRANSFOMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI	
VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....	286-293
<i>Muxammadjonov Muslimbek</i>	
OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...	294-302
<i>Khabibullaeva Dilshoda</i>	
FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	
CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....	303-309
<i>Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi</i>	
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARINI	
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....	310-314
<i>Hamidov Sherali Shirinovich</i>	
BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY	
TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....	315-320
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT	
QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	321-325
<i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i>	
TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA	
KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....	326-331
<i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i>	
"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOIY	
HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING	
TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI .....	332-336
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE	
"DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE	
"INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT .....	337-341

**Received:** 20 July 2025

**Accepted:** 5 August 2025

**Published:** 10 August 2025

*Article / Original Paper*

## **ENSURING SOCIAL STABILITY: ANALYSIS IN THE CONTEXT OF NATIONAL AND GLOBAL SECURITY**

**Yarbayev Hasan**

Senior Lecturer at Gulistan State Pedagogical Institute

**Abstract.** This article provides a systematic analysis of the main directions and mechanisms for ensuring social stability in the Republic of Uzbekistan. The author considers political, social, spiritual, and ideological factors as key components affecting societal stability. The study assesses Uzbekistan's condition based on various international indices. Particular attention is given to regional disparities, the transformation of values among youth, and the impact of digital transformation on stability. A number of solutions are proposed to address the identified challenges.

**Keywords:** social stability, national security, global security, political trust, spiritual values, economic disparities, digital transformation, youth value crisis, regional imbalances, stability indices.

## **JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH: MILLIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL**

**Yarbaev Xasan Xazratqulovich**

Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jamiyat barqarorligini ta'minlash jarayonining asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Maqolada siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy omillar jamiyat barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda turli xalqaro indekslar asosida O'zbekiston holati baholangan va hududiy nomutanosibliklar, yoshlar orasidagi qadriyatlar transformatsiyasi, raqamli transformatsiyaning barqarorlikka ta'siri alohida o'rganilib, muammolarga bir qator yechimlar taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik, global xavfsizlik, siyosiy ishonch, ma'naviy qadriyatlar, iqtisodiy tafovutlar, raqamli transformatsiya, yoshlarda qadriyatlar inqirozi, regional nomutanosiblik, barqarorlik indekslari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N17>

### **KIRISH**

Bugungi kunda globallashuv, raqamli transformatsiya va geosiyosiy ziddiyatlar kuchaygan murakkab sharoitda jamiyat barqarorligi masalasi har qachongidan ham dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat barqarorligini ta'minlanish nafaqat milliy xavfsizlikning, balki global tinchlik va taraqqiyotning ham muhim mezonidir. Xususan, Yaqin Sharq, Afrika va postsoviet hududlarida yuzaga kelgan beqarorlik holatlari ijtimoiy strukturaviy omillarning izdan chiqishi oqibatida shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jamiyat barqarorligini ta'minlash jarayonining tizimli tahlili amalga oshiriladi. Mavzuning dolzarbligi mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar fonida, ayniqsa Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi

doirasida, ijtimoiy tizimda muvozanat, ishonch va inklyuziv rivojlanish muhitini shakllantirish zaruriyat bilan izohlanadi.

## ADABIOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jamiyat barqarorligini ta'minlash masalasi ijtimoiy fanlar tarixida doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ushbu masalaning o'rganilishi qadimi davrlardanoq turli falsafiy, siyosiy va ijtimoiy tafakkur maktablarida muhim mavzu bo'lgan. Xususan, Antik davr mutafakkirlari bu borada dastlabki yondashuvlarni ilgari surishgan. Masalan, Aflatun o'zining "Davlat" asarida jamiyatdagi adolat va muvozanatni barqarorlikning assosi deb bilgan[1]. Aristotel esa "Siyosat" asarida ijtimoiy tuzumlarning uyg'unligi jamiyatni barqaror qiladi, degan g'oyani ilgari suradi[2].

O'rta asrlarda Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida siyosiy hokimiyat, iqtisodiy resurslar va ijtimoiy birdamlik o'rtasidagi bog'liqlikni barqarorlik mezoni sifatida ko'rsatgan[3].

Yangi davr G'arb tafakkuri ushbu mavzuga siyosiy va ijtimoiy tizimlar nuqtayi nazaridan yondashdi. Tomas Xobbs "Leviatan" asarida kuchli markazlashgan hokimiyatni barqarorlik garovi sifatida asoslab berdi[4]. Makss Veber esa byurokratiya va qonuniylikni modern jamiyat barqarorligining elementi sifatida ko'rsatdi[5].

XX asrda T. Parsons ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi funksional muvozanatni asosiy omil sifatida tahlil qilgan[6], H. Linz va A. Stepanlar esa demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatni barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblaganlar[7].

Zamonaviy bosqichda, Scopus va JSTOR bazalaridagi so'nggi ilmiy maqolalar jamiyat barqarorligini multidisiplinar yondashuv asosida tahlil qilmoqda. R. Inglehart va C. Welzel tomonidan taklif etilgan Modernization Theory barqarorlikni qadriyatlar evolyutsiyasi orqali o'lchashga asoslanadi[8]. D. Kaufmann va A. Kraay esa WGI (Worldwide Governance Indicators) tizimi orqali siyosiy barqarorlik, hukumat sifati, qonun ustuvorligi kabi indikatorlarni xalqaro taqqoslashda qo'llashmoqda[9].

O'zbekiston sharoitida jamiyat barqarorligiga oid tadqiqotlar keyingi yillarda falsafa, siyosatshunoslik va sotsiologiya fanlari doirasida rivojlanmoqda. Xususan, M. Nazarovning "Ijtimoiy barqarorlik va indikatorlar tizimi" maqolasida barqarorlik komponentlari va ularning tahlil metodologiyasi tizimlashtirilgan[10]. Shu bilan birga, A. Jo'rayev, D. Karimov kabi olimlar yoshlar qadriyatlari, fuqarolik ishonchi va hududiy tafovutlar bilan bog'liq beqarorlik omillarini tahlil qilganlar[11].

BMT (UNDP), Gallup va Jahon banki tomonidan tayyorlanadigan yillik hisobotlar, indekslar ham O'zbekistonning jamiyat barqarorligi bo'yicha empirik tahlillarini ta'minlaydi[12]. Bu esa ilmiy tahlillarga asoslangan siyosiy strategiyalar ishlab chiqish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat barqarorligi masalasi qadimdan hozirgacha falsafiy, siyosiy, sotsiologik va iqtisodiy fanlarda o'rganib kelinmoqda. Zamonaviy davrda indikatorlar, statistik tahlillar va ijtimoiy monitoring asosida bu muammo chuqur va tizimli o'rganilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Xususan, tizimli-funksional tahlil usuli orqali jamiyat barqarorligini ta'minlovchi omillar – siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy barqarorlik tahlil qilindi. Respublika Statistika agentligi, UNDP, Gallup va boshqa xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga asoslangan sotsiologik hamda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni kyzatish maqsadida empirik usullardan foydalanildi. Shu bilan birga,

qiyosiy tahlil yoli bilan O'zbekistonning indikatorlari boshqa mintaqaviy va global davlatlar bilan solishtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyat barqarorligi holati siyosiy ishonch, iqtisodiy farovonlik, ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik va mafkuraviy mushtaraklik kabi komponentlar bilan belgilanadi. Chunki barqarorlik jamiyatda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy tizimlarning muvozanatli rivojlanishi orqali yuzaga keladi. Bu omillar ijtimoiy institutlar barqarorligini ta'minlaydi va ularning o'zaro integratsiyasini kuchaytiradi.

Xalqaro indekslar va milliy statistik ma'lumotlar tahlili O'zbekistonda ushbu omillar bo'yicha bir qator ijobjiy natijalarga erishilayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, siyosiy barqarorlikni ta'minlashda fuqarolarning hukumatga bo'lgan ishonchi, saylov tizimi shaffofligi va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati muhim omillardir. 2023-yilda Gallup International tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholisi orasida hukumatga ishonch darajasi 72% ni tashkil etgan[13]. Bu ko'rsatkich mintaqada eng yuqori darajalardan biri sifatida qayd etilgan.

So'ngi yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar doirasida quyidagi yutuqlarga erishildi:

- saylov tizimining ochiqligi va xalqaro normalarga muvofiqligi oshdi;
- parlament faoliyati sezilarli faollashdi, qonunchilik tashabbuslrida jamoatchilik ishtiroki kengaydi;

- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, xususan NNT va OAV erkinligi mustahkamlandi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi Markaziy bank va Statistika agentligi hisobotlariga muvofiq tahlil qilinganda, oxirgi yillarda iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagicha o'zgargan:

- 2019-yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'ati 5,2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 5,6% ga yetgan. 2024-yil uchun prognoz ko'rsatkich 6,0% atrofida bo'lishi kutilmoqda;

- inflyatsiya darajasi 2019-yilda 16% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 11% gacha pasaygan. 2024-yilda bu raqam 8% ga tushirilishi rejalashtirilgan;

- rasmiy ishsizlik darajasi 2019-yilda 9,3% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 8,5% ga kamaygan va 2024 yilda 8% ga yetishi kutilmoqda;

- Yashirin ishsizlik hanuzgacha yuqori bo'lib, 2019-yilda 15% atrofida bo'lgan va 2023-yilda 14,5% atrofida saqlanib qolmoqda[14].

Ma'naviy barqarorlik esa jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va umumqabul qilingan qadriyatlar asosida qaror topadi. Bu borada ham O'zbekistonda quyidagi ijobjiy korsatkichlar mavjud:

- 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashayotgan ko'p millatli davlat sifatida tan olingan;

- 16 dan ortiq diniy konfessiyalar teng imkoniyatlar va diniy bag'ri kenglik asosida faoliyat yuritmoqda;

- UNESCO tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo muloqot tamoyillarini faol qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, raqamli madaniyatning jadal rivojlanishi, global media kontentning yoshlarga ta'siri va mehnat migratsiyasi oqibatida ma'naviy identifikatsiya muvozanati sinovdan o'tmoqda.

O'zbekistonda mafkuraviy barqarorlik "Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyatlar davlati"[15] konsepsiysi doirasida ta'minlanmoqda. Bu konsepsiya:

- Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash;
- davlat va xalq o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash;
- Innovatsion va ochiq jamiyat qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda jamiyat barqarorligiga ta'sir qiluvchi xalqaro Statistik indikatorlar asosidagi baholanganda, 2023-yil holatiga ko'ra, ijtimoiy barqarorlikni ifodalovchi asosiy indikatorlar quyidagilardan iborat[16]:

- Gini koeffitsiyenti – 0.344: Bu ko'rsatkich daromadlar tengsizligining nisbatan past darajada ekanini bildiradi;

- Inson salohiyati indeksi (HDI) – 0.745: Bu esa ta'lim, sog'lijni saqlash va yashash darajasining yaxshilanishini ko'rsatadi;

- Ijtimoiy barqarorlik indeksi (SSI) – 0.64: Bu ko'rsatkich O'zbekiston jamiyati beqarorlik zonasidan chiqib, barqarorlik zonasiga yaqinlashayotganini anglatadi.

Hududiy nomutanosibliklar va xavf indikatorlari asosidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik darajasi Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi markaziy hududlarda yuqori bo'lsa, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Jizzax kabi chekka hududlarda nisbatan past. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2024-yil holatiga:

- Toshkent shahri YAIMning 35–40% ni;
- markaziy viloyatlar byudjet tushumlarining 70% ni tashkil qiladi;
- zamonaviy tibbiy xizmatlar va ta'lim infratuzilmasining 80% dan ortig'i ana shu hududlarda to'plangan.

Aksincha, chekka hududlarda aholining davlatga ishonchi pastligi, yoshlar migratsiyasi, bandlikdagi nomutanosiblik va infratuzilma yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Bu holat uzoq muddatli barqarorlikka tahdid solishi mumkin.

Shu munosabat bilan, hududlarni kompleks rivojlantirish strategiyasi – 2030 doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yangi infratuzilmaviy loyihalarni joriy etish;
- hududiy sarmoya oqimini rag'batlantirish;
- mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik darajasi poytaxt va yirik sanoat markazlari (Toshkent, Samarqand) bilan chekka hududlar (Surxondaryo, Qoraqalpog'iston) o'rtasida sezilarli farq qiladi. Bu nomutanosiblik uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan tizimli islohotlar ijtimoiy barqarorlikka musbat ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu barqarorlik holati dinamik tusga ega bo'lib, uni saqlab qolish uchun doimiy monitoring, sotsiologik tahlil va siyosiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash talab etiladi.

Hududiy tafovutlar, ijtimoiy xizmatlarga nisbatan imkoniyatlar tengsizligi, mehnat migratsiyasining yuqoriligi va yoshlar o'rtasida muqobil qadriyatlarga moyillik mavjudligi O'zbekistonda jamiyat barqarorligining zaif nuqtalarini tashkil etadi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonida ishsizlikning yangi shakllari, ayniqsa byurokratik soha xodimlari orasida yuzaga kelayotgan tahdidlar ham jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA

Yuqorida bayon etilgan tahlillar asosida jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish maqsadida quyidgilarni amalga oshirish lozim:

-har yili ijtimoiy barqarorlik bo'yicha milliy indeksni ishlab chiqish va monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim;

-hududiy barqarorlik strategiyalari ishlab chiqilishi va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik indikatorlar asosida alohida siyosat yuritilishi tavsiya etiladi;

-raqamli iqtisodiyotga mos kasbiy qayta tayyorlash markazlari faoliyatini kengaytirish zarur;

-yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni mustahkamlovchi axborot-ma'rifiy dasturlar ishlab chiqilishi kerak;

-ijtimoiy barqarorlikni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish uchun mustaqil tadqiqot institutlari va universitetlar huzurida ixtisoslashgan markazlar tashkil etilishi lozim.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Афлотун. Давлат.– Т.: Янги аср авлоди.2024 й. 512 бет.
2. Aristotel. Siyosat. Qadimgi yunon falsafasi ontologiyasi. Toshkent: Fan, 1990.
3. Ibn Xaldun. Muqaddima.-- TUIST AND SUPPORT.2025 y.440 bet.
4. Hobbes T. Leviathan. Penguin Classics, 1985.
5. Weber M. Economy and Society. University of California Press, 1978.
6. Parsons T. The Social System. Free Press, 1951.
7. Linz J., Stepan A. Problems of Democratic Transition and Consolidation. Johns Hopkins University Press, 1996.
8. Inglehart R., Welzel C. Modernization, Cultural Change and Democracy. Cambridge University Press, 2005.
9. Kaufmann D., Kraay A. Governance Indicators: Where Are We, Where Should We Be Going? The World Bank Research Observer, 2008.
10. Nazarov M. "Ijtimoiy barqarorlik va indikatorlar tizimi". Falsafa va huquq jurnali, 2(88), 55–63.2022.
11. Jo'rayev A., Karimov D. Zamonaviy jamiyatda barqarorlik muammolari. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2021.
12. UNDP. Human Development Report, 2023. <https://hdr.undp.org>
13. Gallup International. Trust in Government Index, 2023. <https://www.gallup.com>
14. Statistika agentligi: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy nutqlari. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
16. World Bank. World Development Indicators, 2023. <https://data.worldbank.org>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 8 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).